

**SWOT TAHLILIDAN FOYDALANIB BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF
O'QITUVCHILARIDA EKOLOGIK-VALEOLOGIK MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISH**

**Uralova G.O'.-Nizomiy nomidagi TDPU
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”
kafedrasi dotsenti v.b., PhD**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirishda sezilarli samara beradigan metodlardan biri va uni qo‘llash jarayonlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Swot, idientiv integrallash, didaktik tuzilma, produktivlik, interaktiv muloqot, integratsiya, differensiasiya.

SWOT tahlili texnologiyasi. SWOT tahlili kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni tahlil qiladi. SWOT kuchli tomonlar va imkoniyatlarni maksimal darajada oshirish orqali maqsadlaringizga erishish uchun strategiyangizni rejalashtirishga yordam beradi. Shuningdek, u har qanday zaif tomonlar yoki tahdidlarni bartaraf etish uchun dars davomida mavzuimiz uchun vositalar va tushunchalarni beradi[1].

Dars vaqtida SWOT-tahlili innovatsion texnologiyasini kiritilishi talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan bilimlarni chiqurlashtiradi; amaliy mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalari bilan olib borish talabalarda shu fandan olgan bilimlarini xotirada uzoq vaqt saqlab qolish xususiyatini shakllantiradi; talabalarning o‘qish jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini ta’minlaydi, shuningdek ularning mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda qarashlari kuchayadi.[2]

SWOT metodini o‘tkazish mazmuni[1]. Birinchidan, SWOT tahlilidan qanday foydalanishni hal qilamiz. Talabalarni, modellarni, natijalarni baholash uchun ushbu turdag'i tahlildan foydalanamiz. Bundan tashqari, ta’lim tizimida yoki boshqa sohalarda ishlashni yaxshilash uchun shaxsiy darajada foydalanish mumkin. Talabalar o‘zlarining kuchli tomonlaringizni ko‘rib chiqishadi va jadvalga ro‘yxatlab qo‘yishadi. Agar bu shaxsiy tahlil bo‘lsa, bu talabaga boshqalardan ustunlik beradigan ta’lim, tajriba va xarakter xususiyatlari kabi narsalarni o‘z ichiga oladi.

Keyin talabalarning zaif tomonlari ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy darajada bu tajriba yoki ta’limdagi bo‘shliqlar va kechikish kabi yomon odatlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Dars jarayonida berilgan mavzuni yoritish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini yoki bo‘lishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy tahlil uchun bu ta’lim imkoniyatlari yoki faoliyatni o‘z ichiga olishi mumkin.

Yangi mavzuni qiziqarli hamda tushunarli olib borishga qarshi ishlaydigan har qanday tahdid yoki narsalarni yozib olish lozim. Shaxsiy tahdidlar autsorsing yoki talabalarning dars jarayonidagi faoliyatiga tahdid soluvchi texnologiya yoki shaxsiy tibbiy holati va shaxsiy maqsadlariga erishishga to‘sinqil qiladigan paydo bo‘lgan vaziyatni o‘z ichiga olishi mumkin.

Talabalarning kuchli tomonlari mavzuni o‘zlashtirishga erishishga qanday yordam berishini va ulardan qanday qilib samarali foydalanishi aniqlanadi. Keyin zaif tomonlarini kamaytirish yoki yengish uchun qanday qadamlar qo‘yish mumkinligi tahlil qilinadi.

Talabalarga ta’sir qiladigan imkoniyatlar va tahdidlarni yoki tashqi omillar tahlil qilinadi. Qaysi imkoniyatlardan foydalanish yaxshiroq bo‘lishini dars jarayonida hal qilamiz va shaxsiy darajasida talabaga duch keladigan tahdidlarni minimallashtirish yoki zararsizlantirish rejsasi tuziladi.

Dars jarayoni va talabalar uchun eng yaxshi yo‘nalishni aniqlash uchun harakat qadamlarimiz va ichki hamda tashqi omillar tahlilidan foydalilanadi. Mavzu uchun mavjud

bo‘lgan eng yaxshi imkoniyatdan foydalanish va tahdidlardan qochish uchun talabalarning kuchli tomonlaridan qanday foydalanishni aniqlash uchun ichki va tashqi omillar birgalikda tahlil qilinadi.

SWOT tahlilidan foydalanishda ekologik muammolarni hal qilish masalalari o’rganilishi mumkin.

“Fikr so‘rovi” texnologiyasi.

Azaldan jamoatchilik fikrini o’rganish va uni boshqaruv qarorlarni qabul qilishda e’tiborga olish murakkab ish sanaladi. Chunki, jamoatchilik fikri o’z ijtimoiy va psixologik tabiatiga ko‘ra o‘ziga xos tig‘iz va notejis oqim bo‘ylab rivojlanadi. Ushbu oqimning mazmuni va yo‘nalishiga bir tomonidan ilm ahli, ikkinchi tomondan boshqaruv apparatiga ma’lum bo‘lgan va bo‘lmagan obyektiv hamda subyektiv omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasida jamoatchilik fikrini uzlusiz ravishda so‘rov instrumentlari orqali monitoring qilib borishga ko‘proq urg‘u beriladi. Eng muhim so‘rov instrumenti esa – bu sotsiologik anketa yoki anketa so‘rovi metodidir[3].

Fikr so‘rovi talabalarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishga yordam beradi. So‘rov turli fikrlarni o‘tkazishga imkon beradi (masalan, qat’iy roziman, roziman, bir qarorga kelmayman, qo‘silmayman, qat’iy rozi emasman). Ijtimoiy so‘rovlar muhokama uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilishi mumkin; o‘qituvchiga talabalarning qadriyatlari, munosabatlari va e’tiqodlari haqida tushuncha berish; va bu munosabatlardagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun foydalilanadi.

“Fikr so‘rovi” texnologiyasini qo‘llashda ochiq tipdagi savollar va matnli savol, nominal savol, miqdoriy savol, yopiq tipdagi savollarlardan foydalilanadi[3].

“Fikr so‘rovi” texnologiyasini qo‘llashda ta’lim jarayoni, atrof-muhit (ta’lim va tabiiy-ijtimoiy muhit), o‘z-o‘zi, pedagoglar, bolalar va oilani faol sog‘lomlashtirish texnologiyalari –

Yuqorida aytib o‘tilgan texnologiyalar asosida ketma-ket va uzlusiz ravishda o‘zini va atrof muhitni sog‘lomlashtirish istaklari va ehtiyojlari shakllanadi. Shunday qilib, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyati rivojlantirish tizimining samaradorligini baholashda pedagogika oliy ta’limi subyektlari pedagogik faoliyatining aytib o‘tilgan barcha turlari va

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari bilish produktivligini subyekt-subyekt hamkorligidagi sog‘lomlashtirish faolligiga izchil moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ijobiy faoliyat, interaktiv muloqot jarayonlarini didaktik tuzilmaning tashkiliy mazmuniga idientiv integrallash asosida takomillashtirilgan.

Talaba o‘z faoliyatini, o‘z taqdirini, o‘z hayotini mustaqil boshqarishga faol kirishadi. Bu konsepsiya “subyekt-subyekt” munosabatlari sifatida tan olindi va ko‘pgina rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida o‘z o‘rniga ega. Bunga, masalan, subyektlararo aloqalarni aniqlash va ulardan foydalanish g‘oyasini izlash, ishlab chiqarish va amalga oshirishni talab qiladigan vazifalar yordam beradi.

Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqelikda barcha hodisalar ular o‘rtasidagi munosabatlarning har-xil ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. Faol munosabatlar alohida ajralib turadi, ular faoliyat deb ataladi. Faoliyat aniq turlari xilma-xilligi subyektlarning funksiyalarini ularning munosabatlari, subyektlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonida tavsiflaydi. Inson

ko'rsatadi, o'z ongida obyektiv olamni aks ettirib va ayni paytda ongli maqsadga erishib, uni o'zgartiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini bilish produktivligini subyekt-subyekt hamkorligidagi sog'lomlashtirish faolligiga izchil moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ijobjiy faoliyat, interaktiv muloqot jarayonlarini didaktik tuzilmaning tashkiliy mazmuniga idientiv integrallash asosida takomillashtirishda integrallash masalasini alohida qayd etish lozim.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida qayd etilishicha, «Integral [lot, integer-butun] - matematik analiz (tahlil) ning asosiy tushunchalaridan biri. Integrallash- matematikada aniqmas integralni izlash amali. Integratsiya (lot. Integration - tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan), fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differensiasiya bilan birga kechadi» [4].

«Macmillan English Dictionary for Advanced Learners» lug'atida esa quyidagicha izohni uchratish mumkin: Integral (integral) – 1. to'liq bo'lishi uchun biror bir qismni yaxlitlash; Integratsiyalash (Integrate) – 2. Ikki yoki undan ortiq narsalarni to'liq tizim yoki bo'lak bo'lishi uchun birlashtirish. Integratsiya (Integration)-narsalarni, odamlarni yoki turli xil fikrlarni bitta qilib jamlash, jamlab olmoq [5].

Demak, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini bilish produktivligini subyekt-subyekt hamkorligidagi sog'lomlashtirish faolligiga izchil moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ijobjiy faoliyat, interaktiv muloqot jarayonlarini didaktik tuzilmaning tashkiliy mazmuniga idientiv integrallash (lot. integer – bir butun, buzilmagan, qayta tiklangan[6])da jarayonning umumiy xususiyatlari alohida ahamiyat qaratiladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. Патрахина Т.Н. SWOT-анализ как инструмент планирования стратегии организации.«Науковедение» Том 7, №2 (2015)
2. Turayev A.A. Innovatsion texnologiyalarning ta'lif taraqqiyotidagi o'rni. "Buxoro viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar" mavzusida respublika ilmiy - amaliy anjumani materiallari. Buxoro – 2020.
3. Yuldashev S.R. Sotsiologik anketa tuzish nazariyasi va amaliyoti. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 72 b.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 8-jild. - B. 55.
5. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Publishers Limited. – England. 2002. 1692 p.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2006. 3 jild. -557 b.
7. Dhabliya, D., Ugli, I. S. M., Murali, M. J., Abbas, A. H., & Gulbahor, U. (2023). Computer Vision: Advances in Image and Video Analysis. In E3S Web of Conferences (Vol. 399, p. 04045). EDP Sciences.
8. Uktamovna, U. G. (2022, December). Social-historical basics of the development of ecological-valeological culture in future primary class teachers. In Conference Zone (pp. 190-196).
9. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiy o'rta ta'lif muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalinish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE

10. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.
11. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
12. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning "fozil odamlar shahri" asari-bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.
13. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompitensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
14. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). Башлангич синфларда дидактик жараёнда боланинг ривожланишини таъминловчи технологияларни такомиллаштиришнинг илмий-педагогик таҳлили. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
15. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
16. Караматова, Д. С. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 4-9.
17. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
18. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limdi innovatsiyalar*, 1(Архив № 2).
19. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
20. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
21. O'ktamovna, U. G. (2022). Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar. Conferencea, 40-44.
22. Oktamovna, U. G. (2022). Formation of valeological culture in primary school pupils. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(5), 220-223.